

муносабатларига асосланган соғлом рақобат мұхитини шакллантириш;

➤ инвестицион лойиҳаларни самарали амалға ошишини таъминлаш учун зарур инфратузилмаларни яратиш, уларни имконият-

ларини кенгайтириш ҳамда инновацион усуларни кенг жорий этиш;

➤ маңаллий инвесторлар учун ҳам қулагай шарт-шароитларни яратиш.

### Манба ва фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Бланк И.А. Основы инвестиционного менеджмента. – СПб.: Ника-Центр, 2005 С. 265
2. Литвинова В.В. Инвестиционная привлекательность и инвестиционный климат региона: монография. – М.: Финансовый университет, 2013. – 116 с.
3. Третьяков, А. Г. Управление инвестиционной активностью в регионе: автореф. дис. ... канд. экон. наук. – М.: РАГС, 2006. 18 с.
4. Мустафаев Ш.И. Инвестицион жозибадорликнинг назарий, методологик ва амалий талқини. Монография. – Т.: Маънавият, 2021.
5. Садыков А.А. (2005) Основы регионального развития: теория, методология, практика. Монография. – Ташкент: Iqtisod-moliya. – С. 198.
6. Назаров Ш.Х. (2014) Методологические аспекты повышения конкурентоспособности регионов. Монография. – Ташкент: IFMR. – С. 41.
7. Ахмедов Т., Отабоев Ш. (2019). Ҳудудлар салоҳиятини баҳолаш: ривожланиши стратегияларини ишлаб чиқишининг муҳим асоси // Стратегическое планирование - важный фактор стабильности устойчивого социально-экономического развития страны и регионов: материалы Форума экономистов. – Ташкент: IFMR. – С. 376-386.
8. Kobilov, A. (2020). ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИДА ТЎҒРИДАН-ТЎҒРИ ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛARНИ РАҒБАТЛАНТИРИШГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР. Архив научных исследований, 33(1). извлечено от <https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/3748> Другие форматы библиографических ссылок
9. Исматуллаев Ж. (2021). Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining zamonaviy sur'atlari va ularning investitsion jozibadaorligini tahlili. //Иқтисодиёт ва таълим, (4), 355-358.
10. Ismatullayev J. (2021). Минтақаларда пандемия инқизозига қарши бошқарувни қўллаш зарурати ва хусусиятлари. //Архив научных исследований.
11. [www.raexpert.ru](http://www.raexpert.ru)
12. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)



## MINTAQADA TOVARLAR VA XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING YALPI HUDUDIY MAHSULOTGA TA'SIRI

Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich -  
Urganch davlat universiteti doktoranti,  
i.f.n., dotsent

doi: [https://doi.org/10.55439/ECED/vol23\\_iss4/a53](https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss4/a53)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xorazm viloyati mintaqasida tovar va xizmatlar bozori samaradorligini oshirishning viloyat yalpi hududiy mahsulotiga nisbatan ta'sirini aniqlashga qaratilgan ilmiy fikrlar ilgari surilgan va xulosalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar.** Mintaqalardagi bozor, samaradorlik, bozor samaradorligi, yalpi milliy mahsulot (YaMM), yalpi hududiy mahsulot (YaHM), chakana savdo tovar aylanmasi, tashqi savdo aylanmasi, Cheddock shkalasi.

## ВЛИЯНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ РЫНКА ТОВАРОВ И УСЛУГ РЕГИОНА НА ВАЛОВЫЙ ПРОДУКТ

Худайберганов Дильтод Тухтабаевич -  
Докторант Ургенчского государственного  
университета, к.э.н., доцент

**Аннотация.** В данной статье выдвигаются идеи, направленные на определение влияния повышения эффективности рынка товаров и услуг Хорезмской области на валовой региональный продукт.

**Ключевые слова.** Регион, рынок, эффективность, эффективность рынка, валовой национальный продукт, валовой региональный продукт, розничный товарооборот, внешнеторговый оборот, шкала Чеддока.

THE IMPACT OF INCREASING THE EFFICIENCY OF THE MARKET OF GOODS AND SERVICES IN THE REGION ON THE GROSSAL PRODUCT

Hudayberganov Dilshod Tuxtabaevich -  
Urgench State University doctoral student,  
PhD, associate professor

**Abstract.** This article presents scientific ideas and conclusions aimed at determining the impact of increasing the efficiency of the market of goods and services in the Khorezm region on the gross regional product of the region.

**Keywords:** region, market, efficiency, market efficiency, gross national product, gross regional product, retail trade turnover, foreign trade turnover, Cheddock scale.

**Kirish.** Bugungi kundagi ustuvor vazifalaridan biri respublikamizdagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishdan iborat. Bu borada muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'l-jallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonining [10] 1-ilovasida III "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" bandining 21-maqсадida iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga YaHMni 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish belgilangan [1].

Darhaqiqat, ushbu imkoniyatlarni yuzaga chiqarish uchun mintaqalarga birlashgan respublikamizdagi har bir hududning salohiyatidan yetarli darajada foydalanish lozim. Xususan, Xorazm viloyati mintaqasida iqtisodiy salohiyat sohaning rivojlanishi bilan bog'liq. Chunki, Xorazm viloyati iqtisodiyotining rivojlanishi respublikamiz iqtisodiyoti va uning tovar va xizmatlar bozori sektorida muhim o'rinni egallaydi. Viloyatning muhim iqtisodiy ko'rsatkichlari qatoriga YaHM, sanoat, iste'mol tovarlari, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, investitsiyalar, qurilish ishlari, chakana tovar aylanishi, xizmatlar, eksport va import kabilar kiradi. Ko'rsatkichlar mutlaq va nisbiy o'zgarishlar asosida tahlil qilinib, bozorning rivojlanish omillari aniqlanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.**

R.Snezana, M.Zoran, K.Zorana, V.Ljubisa tomonidan ilgari surilgan nazariy yondashuvlarga ko'ra, bozorlar quyidagi samaradorlik darajalariga nisbatan samarali yoki samarasiz hisoblanadi [2]:

- kuchli samaradorlik shakli: Bu eng kuchli shakl bo'lib, bozordagi barcha ma'lumotlar, xoh

davlat yoki xususiy bo'lsin, aksiyalar bahosida hisobga olinishi va hatto kiruvchi ma'lumotlari ham investorga ustunlik bera olmasligini ko'rsatadi;

- yarim kuchli samaradorlik shakli: Bu shakl barcha ommaga ochiq bo'lgan ma'lumotlar joriy narx bo'yicha hisoblab chiqilishini nazarda tutadi, shuning uchun ham texnik tahlillardan yuqori natijalarga erishish uchun foydalanilmaydi;

- zaif samaradorlik shakli: Bu turdag'i barcha o'tgan narxlar bugungi narxda aks ettirilganligini da'vo qiladi. Shuning uchun, texnik tahlildan bozorni prognoz qilish va mag'lub etish uchun foydalanib bo'lmaydi.

T.Burmenko asarida keltirilganidek, hozirgi kunda agarda xizmatlar sohasida YaMMning 65,0 foizdan kam qismi yaratiladigan bo'lsa, bunday mamlakatlar rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiritilmaydi [3]. YaHMning asosiy tarkibi bozor samaradorligining elementi bo'lgan xizmatlar hajmiga bog'liq.

Ba'zi manbalarda keltirilishicha, hudud uchun YaHMni tuzish uchun mintaqqa aholisi to'g'-risidagi ma'lumotlarni to'plash kerak [4]. YaHM mintaqaning barcha iqtisodiy ko'rsatkichlari samaradorligiga bog'liqdir.

Hudud iqtisodiyotini samarali boshqarish-siz hududni muvaffaqiyatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish mumkin emas. O'z navbatida, mintaqqa iqtisodiyotini boshqarish samaradorligini oshirish uchun iqtisodiy matematik modellashtirish va uning rivojlanishini prognozlashdan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lib, iqtisodiy boshqaruvning optimal strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beruvchi xarajatlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Ushbu maqsadga erishish yo'lida N.S.Sadovin, T.N.Kokotkina, T.G.Barkalova and Evgeny I.Tsaregorodseva fikricha, YaHMni shakllantirishni matematik modeliarini yaratish maqsadga muvofiqdir [5]. Nati-jada, YaHM orqali turli hisob-kitoblar orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini yaratiladi

V.Klyunya, S.Balyukning fikricha, jahon nazariyasi va amaliyotida YaHM – bu ma'lum bir hududning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat yig'indisi bo'lib, u mamlakat YaIM yoki yalpi milliy mahsulot (YaMM)ga o'shash, makroiqtisodiy darajada qaysi ko'rsatkich hisoblanishiga bog'liq [6]. Iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish orqali bozor samaradorligini ta'minlash mumkin.

V.Bochkoning fikricha, YaHM mintaqaning iqtisodiy faoliyati, uning ko'rsatkichlarining umumiyoq ko'rsatkichi bo'lib, ushbu hududda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarning yangi yaratilgan qiymatini tavsiflaydi [7]. Mahsulot va xizmatlar bozor samaradorligining muhim elementi bo'lib, uning samaradorligini oshirishni belgilaydi.

B.T.Salimov, B.B.Salimov, G.R.Madraximovning fikrlaricha, YaHMni ijobjiy tomoni shundaki, uning yordamida nafaqat aniq bir hududning iqtisodiy rivojlanishini baholash mumkin, balki respublikadagi barcha hududlar rivojlanish dinamikasini o'zaro taqqoslash bilan birga ularni mamlakat ko'rnatkichlari bilan ham taqqoslama tahlilni amalga oshirish mumkin [8]. Mazkur yondashuvlarga ko'ra, YaHMni oshirish masalasi turli mintaqalarda tovar va xizmatlar bozori samaradorligini oshirishga ta'sirini belgilaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot ishida mintaqada tovar va xizmatlar bozori samaradorligini oshirishning yalpi hududiy mahsulotga ta'sirini aniqlash maqsadida tahlil va sintez, shuningdek qiyosiy, ekonometrik modellashirish usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Xorazm viloyatida bozor samaradorligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy salohiyatini ko'rsatuvchi ko'rsatkich – YaHM hajmi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich hajmi 2020-yilda 20822,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 102,3 o'sish sur'atiga ega bo'lsa, keyinchalik, 2021-yilda viloyatda ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot hajmi 26900,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020-yilga nisbatan o'sish sur'ati 109,2 foizga teng bo'ldi.

Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari va viloyatning iqtisodiy salohiyatini aniqlashda YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, 2021-yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi 103,9 foiz (umumiyligi ulushning 45,7 foizi), xizmatlar sohasi 109,6 foiz (umumiyligi ulushning 33,8 foizi) va sanoat sohasi 117,2 foiz (umumiyligi ulushning 13,3 foizi) ni tashkil qildi.

Shu yilda viloyatning YaHM o'sish sur'atiga asosiy ta'sir qiluvchi omillar bo'lib, sanoat (ishlab chiqarish indeksi 117,2 foiz) va qurilish (o'sish sur'ati 132,3 foiz) tarmoqlari hissasiga to'g'ri

kelgan. YaHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 73,9 foizi kichik tadbirkorlik yoki biznes sohasi hissasiga to'g'ri keldi va bu ko'rsatkich 2020-yilda 76,1 foizni tashkil qilgan.

YaHM tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasining ulushi 45,7 foizni tashkil qildi va 2020-yilga nisbatan 1,5 taga (yoki 47,2 foiz) kamaydi, qurilish sohasi bilan birga sanoat sohasining ulushi 20,5 foizni tashkil qilib, 2020-yilga nisbatan 2,2 taga (yoki 18,3 foiz) ko'p bo'ldi. Hamda shu yilda xizmatlar sohasining ulushi 33,8 foizni tashkil qildi va 2020 yilga nisbatan 0,7 punktga (34,5 foiz) kamaydi.

2021-yilda O'zbekiston Respublikasining YaIMni shakllantirishda Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,7 % ni tashkil etdi yoki viloyat YaHM hajmi ulushi respublika YaIM hajmi ulu-shining shu foiz ulushini tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich 2020-yilning shu davriga nisbatan 0,1 taga yoki 3,6 foizga ko'pga teng bo'ldi. Shu mos yillarda aholi jon boshiga hisoblangan YaHM viloyat bo'yicha hajmi 14093,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich shu mos yillarga nisbatan 107,6 foiz o'sishga erishildi.

2021-yilda xizmatlar tarkibida savdo, ya-shash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 5,3 foizni (2020 yilda 5,3 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari 5,6 foizni (2020 yilda 5,5 foiz), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar 22,9 foizni (2020 yilda 23,7 foiz) tashkil etdi.

1-jadvalga asosan, YaIMning respublikadagi ulushi 2020-yilda 3,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda 3,7 foizga teng bo'lgan yoki 0,1 foizga ko'paygan. Shundan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 13648,5 mlrd. so'mni (yoki respublikada sanoat mahsulotlarining 3,0 foizini) tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 117,2 foizni tashkil etdi. Viloyatda 8563,6 mlrd. so'mlik xalq iste'mol tovarlari (yoki respublikada xalq iste'mol mahsulotlarining 5,6 foizi) ishlab chiqarilib, 2020-yilga nisbatan 110,6 foizga teng o'sish sur'atini tashkil etdi.

2021-yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilgan yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmi 20501,3 mlrd. so'mni (yoki respublikada qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlarining ulushi 6,4 foiz) tashkil etib, 2020-yilga nisbatan o'sish sur'ati 104,0 foizni etdi.

Viloyatda ijtimoiy-iqtisodiy sohani rivojlan Tirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 8580,3 mlrd. so'mlik asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilib, o'sish sur'ati 2020-yilga nisbatan 144,2 foizni (yoki respublikadagi ulushi 3,5 foiz) tashkil etdi.

**2021-yilda O'zbekiston Respublikasining Xorazm viloyati bilan solishtirma makroiqtisodiy ko'rsatkichlari [9]**

Ko'rsatkichlar	O'zbekiston Respublikasi		Xorazm viloyati		Respublikadagi ulushi, % da	
	mlrd.so'm	o'sish sur'ati, % da	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, % da	2020-y.	2021-y.
YaIM yoki YaHM	734587,7	107,4	26900,3	109,2	3,6	3,7
Sanoat	451633,9	108,7	13648,5	117,2	2,6	3,0
Iste'mol tovarlari	152042,8	113,5	8563,6	110,6	5,0	5,6
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	317781,6	104,0	20501,3	104,0	6,5	6,4
Investitsiyalar	244962,6	105,2	8580,3	144,2	2,6	3,5
Qurilish ishlari	107447,6	106,8	4272,1	132,3	3,2	4,0
Chakana tovar aylanmasi	249493,3	112,0	10659,0	111,0	4,3	4,3
Xizmatlar, jami	283301,6	119,2	8368,6	119,6	2,9	2,9
Eksport (mln. AQSh dollari)	16610,6	110,0	230,8	136,1	1,1	1,4
Import (mln. AQSh dollari)	25461,0	120,4	285,9	95,4	1,4	1,1

2021-yilda 4272,1 mld. so'mlik (yoki respublikadagi ulushi 4,0 foiz) qurilish ishlari bajari-lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 132,3 foizni tashkil etdi. Chakana savdo tovar aylanmasi 10659,0 mld. so'mni (respublikadagi ulushi 4,3 foiz), o'sish sur'ati 2020-yilga nisbatan 111,0 foizni tashkil qildi.

Bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 8368,6 mld. so'mni (respublikadagi ulushi 2,9 foizni) tashkil qildi va 2020-yilga nisbatan o'sish 119,6 foizni tashkil etdi.

Tashqi savdo aylanmasi hajmi 516,7 mln. AQSh dollarini (yoki respublikadagi ulushi 1,2 foizni), o'sish sur'ati 113,1 foizni, jumladan eksport hajmi 230,8 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,4 foizni), o'sish sur'ati 136,1 foizni hamda import hajmi 285,9 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,1 foizni) va uning o'sish sur'ati 95,4 foizni tashkil etdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Xorazm viloyatida tovarlar va xizmatlar bozori samaradorligining YaHMga ta'sirini aniqlash uchun ko'p omilli modelni tuzish maqsadga muvofiq. Ushbu ko'rinishdagi model tuzilib, buning natijasida Xorazm viloyatida tovarlar va xizmatlar bozori samaradorligini oshirish orqali YaHM o'sishiga erishish imkoniyatlarini tahlil qilish maqsadida ko'p omilli korrelyatsion-regression tahlil amalga oshirildi. Tahlil uchun quyidagi umumiy ko'rinishdagi chiziqli regressiya tenglamasidan foydalaniildi:

$$Y = a_0 + a_1 \cdot X_1 + a_2 \cdot X_2 + a_3 \cdot X_3$$

Modelda natijaviy ko'rsatkich sifatida YaHM ( $Y$ ) olindi. Bozor samaradorligi ko'rsatkichlari sifatida chakana savdo tovar aylanmasi ( $X_1$ ), chakana savdoda band bo'lganlar soni ( $X_2$ ) va tashqi savdo aylanmasi ( $X_3$ ) ko'rsatkichlari tanlandi va modelga omil ko'rsatkichlar sifatida kiritildi. Tahlil uchun quyidagi jadvalda keltirilgan statistik ma'lumotlardan foydalaniildi:

**Tovarlar va xizmatlar bozori samaradorligining YaHMga ta'sirini aniqlashdagi tanlangan ko'rsatkichlar [9]**

Yillar	YaHM, mld. so'm	Chakana savdo tovar aylanmasi, mld. so'm	Chakana savdoda band bo'lganlar, ming kishi	Tashqi savdo aylanmasi, mln. AQSh dollar
2010	2888,6	1005,9	55,5	1077,0
2011	3870,6	1265,8	56,8	1315,6
2012	4793,4	1566,6	58,1	1650,9
2013	5815,3	1959,6	59,3	2040,1
2014	7313,7	2343,3	60,6	2443,4
2015	8940,4	2723,5	61,9	2807,6
2016	10336,6	3365,9	63,3	3386,5
2017	12008,1	3948,5	64,5	3924,2
2018	15977,2	5269,2	61,7	4832,3
2019	19241,1	6915,5	62,1	6043,8
2020	21467,9	8589,2	59,5	6737,2
2021*	26900,3	10659,0	67,1	516,7

\* dastlabki ma'lumotlar

Tahlil natijasida regressiya tenglamasining noma'lum  $a_0, a_1, a_2$  va  $a_3$  parametrlari aniqlandi va

$$Y = -14323,872 + 2,196 \cdot X_1 + 262,650 \cdot X_2 + 0,289 \cdot X_3$$

Tuzilgan modelning adekvatligini tekshirish uchun dastlab uning aniqlangan parametrlarining ahamiyatliligi Styudent mezoni bo'yicha tahlil qilindi. Barcha parametrlar uchun  $t$ -mezoning aniqlangan haqiqiy qiymatlari ( $t_0 = 3,685; t_1 = 28,935; t_2 = 3,962; t_3 = 3,201$ ) uning 0,95 ishonch ehtimolidagi jadval qiymatidan ( $t(8=12-3-1) = 2,685306$ ) katta ekanligi ularning ahamiyatlari ekanligini tasdiqlaydi.

Regressiya tenglamasining umumiy ahamiyatlari ekanligini baholash uchun Fisher mezoni dan foydalanildi. Fisher mezonining aniqlangan

quyidagi ko'rinishagi regressiya tenglamasi tuzildi:

haqiqiy qiymati  $F=760,032$  uning jadval qiymati  $F_{kp}=4,07$  dan katta ekanligi regressiya tenglamasining umidli ekanligidan dalolat beradi. Ushbu regression tahlil natijalari asosida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, chakana savdoda band bo'lganlar soni va tashqi savdo aylanmasi hajmi kabi ko'rsatkichlarning YaHM hajmini oshishiga qanchalik darajada bog'liqligini aniqlash mumkin.

Shuningdek, YaHMning ushbu omillarga bog'liqlik darajasini tahlil qilish uchun juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari hisoblanib, Cheddok shkalasi bo'yicha baholandi.

### 3-jadval

#### **Xorazm viloyati YaHMning omillarga bog'liqlik darajasini Cheddok shkalasi bo'yicha tekshirish natijalari**

Omil	Juft korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymati	Cheddok shkalasi bo'yicha bog'liqlik daroji
Chakana savdo tovar aylanmasi	0,993	Juda kuchli
Chakana savdoda band bo'lganlar soni	0,712	Kuchli
Tashqi savdo aylanmasi	0,461	O'rtacha

**Manba:** Muallif ishlannamalari.

3-jadvalga asosan, ushbu keltirilgan ko'rsatkichlarning juft korrelyatsiya koeffitsienti qiymati 0 bilan 1 atrofida bo'lib, ularni omillar sifatida ta'sirining juda kuchli, kuchli va o'rtacha ekanligini ko'rsatadi. Natijada, mintaqada YaHMga ta'sir qiluvchi omillardan qanchalik ko'p foydalanilsa, bozor samaradorligi va uni ta'minlashning holatini aniqlash imkonini beradi.

**Xulosa va takliflar.** Xorazm viloyati mintaqasida tovarlar va xizmatlar bozori samaradorligini oshirish YaHMga bevosita bog'liq bo'lib, uning o'zgarishiga ta'sir qiladi. Ushbu o'zgarish ijobiy ahamiyatga ega bo'lib, YaHM hajmini oshirishga xizmat qilishi lozim. Viloyat miqyosida bozor samaradorligi va YaHM hajmi o'rtasidagi bog'liqliklar natijasi shuni ko'rsatadiki, chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 1 mlrd.so'mga oshganda YaHM hajmi 2,196 mlrd.so'mga oshadi, chakana savdoda band bo'lganlar soni har 1000 kishiga oshganda YaHM hajmi 262,650 mlrd. so'mga oshadi va tashqi savdo aylanmasi 1 mln. AQSh dollariga oshganda YaHM hajmi 0,289 mlrd.

so'mga oshadi. Bu esa respublikamiz YaIM hajmini ham oshirishga ta'sir qiladi. Shu bois, ushbu ta'sir bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan samaradorlikning mezon va ko'rsatkichlariga bog'liq bo'ladi.

Shu bois, mintaqada tovarlar va xizmatlar bozori samaradorligini oshirishning yalpi hududiy mahsulotga ta'sirini aniqlashni yanada takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- mintaqada tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish hajmini yanada oshirish;
- mintaqaning eksport potensialini oshirishni ta'minlash;
- mintaqada iqtisodiyotida bozor monitorining ishlash tizimini rivojlantirish;
- tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarini klaster tarmog'iga birlashishi ta'minlash;
- bozor samaradorligi va uni oshirishga qaratilgan konsepsiyalarni rivojlantirish va h.k.

#### **Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.
2. Snezana R., Zoran M., Zorana K., Ljubisa V.. Measuring of The Goods and Labor Markets Efficiency: Comparative Study of Western Balkan Countries. // Montenegrin Journal of Economics, Vol. 15, No. 2 (2019), 095-109. – 98 p.

3. Бурменко Т.Д. Сфера услуг: экономика: учебное пособие / Т.Д.Бурменко, Н.Н.Даниленко, Т.А.Туренко; под ред. Т.Д.Бурменко. – М.: КНОРУС, 2007. – С. 33.
4. Vu Quang Viet Consultant to UNSD's project Statistical Capacity Development in China and other Developing Countries in Asia 23 June 2010. Gross regional products: concepts and country practices. – 6 p. [https://unstats.un.org/unsd/economic\\_stat/China/Gross%20Regional%20Products.pdf](https://unstats.un.org/unsd/economic_stat/China/Gross%20Regional%20Products.pdf)
5. Nikolay S.Sadovina, Tatiana N.Kokotkina, Tatiana G.Barkalova, Evgeny I.Tsaregorodseva. Modeling of the Gross Regional Product on the Basis of Production Functions. // International journal of environmental & science education. 2016, VOL. 11, NO. 17, 10635-10650.
6. Клюя В.Л., Балюк С.С. Методологические аспекты определения валового регионального продукта и региональной эффективности. // Веснік БДУ. Сер. 3. 2012. №2. - 44 с.
7. Бочко В.С. Валовой региональный продукт: оценка развития территории. // Ж.: Теория хозяйствования. – с.3. <https://ws.studylib.ru/doc/2702295/teoriya-hozyajstvovaniya>
8. Salimov B.T, Salimov B.B. Madraximova G.R. Hududlarning yalpi mahsuloti, dinamikasi, tarkibi, hududlararo taqqoslama tahhili va ustuvor vazifalar. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2018-yil 2/2018 (№ 00034). – 1 – 8 b. [www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz)
9. Xorazm viloyatining statistik axborotnomasi. 2021-yil yanvar-dekabr. - Urganch, 2022. – 6-11 b. <https://www.lex.uz/uz/docs/5841063>



### АҲОЛИГА ЯШАШ ЖОЙ ВА УМУМИЙ ОВҚАТЛАНИШ ХИЗМАТЛАРИ РИВОЖИДА ИЧКИ ВА ЁНДОШ ТАРМОҚЛАРНИНГ ТАЪСИРИНИ БАҲОЛАШ (ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)

doi: [https://doi.org/10.55439/ECED/vol23\\_iss4/a54](https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss4/a54)

Рахимов Абдихаким Мухаммадиевич -  
Қарши муҳандислик-иқтисодиёт  
институти, мустақил изланувчиси

**Аннотация.** Мақолада минтақада яшаш жой ва умумий овқатланиш хизматларининг ривожланиши тенденциясини тадқиқ этиши асосида асосий кўрсаткичлар бўйича минтақанинг салоҳиятини баҳолаш ҳамда бошқа ёндош хизмат турлари билан параллель ривожланиши қонуниятлари мавжуд эканлиги эконометрик моделлаштириш ёрдамида тадқиқ этилди. Мехмонхона ва шунга ўхашаш жойлаштириши объектлари фаолиятининг яшаш жой ва умумий овқатланиш хизматлари тармоғи иқтисодий ўсиши кўрсаткичига таъсири бугунги кунда минтақанинг мазкур тармоқ ривожланиши устувор йўналишларини белгилашда эътиборга олинishi зурур бўлган муҳим жиҳат эканлигини асослаш баёни келтирилди.

**Калим сўзлар:** эконометрик модель, корреляцион боғлиқлик, чизиқли модель, яшаш жой ва умумий овқатланиш хизматлари, ахборот ва алоқа соҳасидаги хизматлар, молия хизматлари, транспорт хизматлари, меҳмонхона объектлари.

### ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ВНУТРЕННИХ И ПОДХОДНЫХ СЕТЕЙ НА РАЗВИТИЕ УСЛУГИ ЖИЛИЩНО И ОБЩЕСТВЕННОГО ПИТАНИЯ НАСЕЛЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)

Рахимов Абдихаким Мухаммадиевич -  
Каршинский инженерно-экономический институт,  
независимый исследователь

**Аннотация.** В статье оценивается потенциал региона по основным показателям на основе изучения тенденций развития жилищно и общественного питания в регионе, а также наличия закономерностей параллельного развития с другими смежными услугами с использованием эконометрического моделирования. Констатировано, что влияние деятельности гостиниц и аналогичных средств размещения на экономический рост жилищно и общественного питания является важным фактором, который следует учитывать при определении приоритетов развития данной отрасли в регионе на сегодняшний день.

**Ключевые слова:** эконометрическая модель, корреляция, линейная модель, услуги по жилищно и общественного питания, информационно-коммуникационные услуги, финансовые услуги, транспортные услуги, отели.